



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MONOPOLIYAGA  
QARSHI KURASHISH QO‘MITASI**

002463

**B U Y R U Q**

Toshkent shahri

“ 10 ” oktabr 20 22y.

№ 137-ICH

**O‘zbekiston Respublikasi  
Monopoliyaga qarshi kurashish  
qo‘mitasida tashkil etiladigan  
xarid komissiyasi Nizomi hamda  
xarid komissiyasi tarkibini  
tasdiqlash haqida**

O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-684-sonli qonuni ijrosini ta‘minlash hamda O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi tomonidan amalga oshiriladigan davlat xaridlarida tashkil etiladigan xarid komissiyalari vazifalari, funksiyalari, huquqlari, javobgarligi va faoliyatini tashkil etish tartibini belgilash maqsadida **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasida tashkil etiladigan xarid komissiyasi to‘g‘risida Nizom 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi markaziy apparatining doimiy faoliyat ko‘rsatadigan xarid komissiyasi yangi tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Qo‘mita markaziy apparatida xarid qilish tartib-tamoyillarini tashkil etish va o‘tkazish uchun mas‘ul etib Ma‘muriy xo‘jalik bo‘limi (G‘afforov) belgilansin, mazkur buyruq bilan tasdiqlangan Nizom talablariga qat‘iy rioya qilinishini ta‘minlasin.

4. Devonxona (Ikramova) mazkur buyruqni Qo‘mita markaziy apparati tarkibiy bo‘linmalari, idoraviy mansub tashkilotlarga yuborilishini ta‘minlasin.

5. Mazkur buyruqning bajarilishini nazorat qilish raisining birinchi o‘rinbosari A.Qayumov zimmasiga yuklatilsin

**Rais**

**Sh. Sharaxmetov**

O'zbekiston Respublikasi  
Monopoliyaga qarshi kurashish  
qo'mitasining  
2022-yil 10-oktabrdagi 137-ICH-son  
buyrug'iga 1-ilova

**O'zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasida tashkil  
etiladigan xarid komissiyasi to'g'risida  
NIZOM**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

Qo'mitaning xarid komissiyasi ishining asosiy maqsadi xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarining takliflarini buyurtmaga muvofiqlik darajasi bo'yicha xolis baholashdan va tartibga solishdan hamda davlat xaridlari raqobatlashuv usullari orqali amalga oshirilganda g'olibni (g'oliblarni) tanlashdan iborat.

Xarid komissiyasi toq sonli a'zoldan iborat bo'ladi, uning a'zolari tarkibi va soni xarid qilish tartib-taomilining turiga bog'liq bo'ladi hamda qonunchilikka muvofiq va olinayotgan tovarning (ishning, xizmatning) xususiyatlari inobatga olingan holda o'zgartirilishi mumkin.

Xarid komissiyasi a'zolari xolis bo'lishi va xarid qilish tartib-taomili g'olibini tanlashdan shaxsan manfaatdor bo'lmasligi kerak.

Xarid komissiyasining tezkor faoliyatini uning ovoz berish huquqiga ega bo'lmagan mas'ul kotibi tashkil etadi.

Xarid komissiyasining har bir a'zosi ovoz berishda yoqlab ovoz berishi, qarshi ovoz berishi yoki unda ishtirok etishdan bosh tortishi mumkin. Xarid komissiyasining raisi ovoz berishda ishtirok etishdan bosh tortish huquqiga ega emas.

Xarid komissiyasining majlislari xarid komissiyasi a'zolari hozirligida yuzma-yuz o'tkaziladi. Yuzma-yuz majlislar videokonferensiyalar (telekonferensiyalar va hokazo) shaklida o'tkazilishi mumkin.

Xarid komissiyasi eng yaxshi takliflarni tanlashni va tenderni elektron shaklda o'tkazish chog'ida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan foydalangan holda masofadan turib ovoz berish huquqiga ega.

Xarid komissiyasi davlat xaridlarining predmetidan kelib chiqqan holda, o'z faoliyatini amalga oshirish uchun ekspertlarni, shuningdek boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar mutaxassislarini jalb etish mumkin.

Xarid komissiyasi qarori xarid komissiyasi a'zolari umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Ovozlar teng bo'lib qolgan taqdirda xarid komissiyasi raisining ovozi hal qiluvchi ovoz bo'ladi.



Xarid komissiyasi a'zolarida xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilari bilan affillanganlik xususiyatiga ega aloqalar mavjud bo'lgan taqdirda, xarid komissiyasining bunday a'zosi bu masala ko'rib chiqilgan majlisda o'zini o'zi rad etishi va mazkur masala bo'yicha ovoz berishda ishtirok etmasligi kerak, bu haqda xarid komissiyasi majlisining bayonnomasida qayd etiladi.

Agar xarid komissiyasiga mazkur komissiya a'zosining affillanganligi mavjudligi tegishli masala yuzasidan qaror qabul qilinguniga qadar ma'lum bo'lib qolgan bo'lsa, uning o'zi esa o'zini o'zi rad etmagan bo'lsa, bunday a'zoning mazkur masala bo'yicha ovoz berishiga yo'l qo'yilmaydi.

Agar xarid komissiyasiga tegishli masala bo'yicha ovoz bergan mazkur komissiya a'zosining affillanganligi mavjudligi qaror qabul qilinganidan keyin ma'lum bo'lib qolgan bo'lsa, bunday a'zoning ovozi mazkur masala bo'yicha ovoz berish natijalaridan chiqarib tashlanadi.

Qarorlarni oshkora va xolisona qabul qilish, mahalliy tovar ishlab chiqaruvchilari (yetkazib beruvchilari) uchun ustuvorlikni saqlagan holda tanlash/tender qatnashchilari (keyingi o'rinlarda ISHTIROKCHILAR) uchun teng raqobat sharoitlari yaratish Tanlashlar/tenderlar o'tkazishni tashkil etishning asosiy tamoyillari hisoblanadi.

## **2-bob. Xarid komissiyasining asosiy vazifalari**

Qo'mita xarid komissiyasi quyidagi vazifalarni bajaradi:

xarid qilish hujjatlarini kelishadi;

takliflar qabul qilish muddatlarini belgilaydi;

takliflarni ochish tartib-taomillarini belgilaydi;

takliflarni baholash mezonlarini va usullarini belgilaydi;

zarur bo'lganda taklif kiritish tartibini, hajmini va uni ta'minlash shaklini belgilaydi;

xarid qilish tartib-taomili ishtirokchilarining takliflarini ochishni amalga oshiradi;

dastlabki malaka tanlashni o'tkazadi, agar xarid qilish hujjatlari shartlarida bu nazarda tutilgan bo'lsa;

zarur bo'lganda dastlabki malaka tanlash natijalarini hisobga olgan holda qaror qabul qiladi;

zarur bo'lganda baholash guruhini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qiladi;

xarid qilish tartib-taomillarini ushbu Qonunga muvofiq amalga oshiradi;

xarid qilish tartib-taomillarining raqobatlashuv turlari g'olibini va zarur bo'lganda zaxiradagi g'olibni belgilaydi yoki savdoni amalga oshmagan deb topadi.

Xarid komissiyasi davlat xaridlari ijrochisini aniqlash tartib-taomillarining davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilik talablariga muvofiqligi, o'zi qabul qilayotgan qarorlarning asosliligi va beg'arazligi uchun javobgar bo'ladi.

Xarid komissiyasi davlat xaridlarining boshqa subyektlari tomonidan amalga oshiriladigan harakatlar uchun javobgar bo'lmaydi.



Xarid komissiyasi tomonidan o'z vakolati doirasida qabul qilinadigan qarorlar davlat buyurtmachisi va xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilari uchun majburiydir.

### **3-bob. Xarid komissiyasi ishini tashkil etish**

Qo'mita tomonidan davlat xaridlarini tanlash (tender) orqali amalga oshirish jarayonida kamida to'qqiz nafar a'zodan iborat tarkibda komissiya tuziladi.

Xarid komissiyasining ishiga tegishli rais o'rinbosari rahbarlik qiladi, u Xarid komissiyasi majlislarini chaqiradi va olib boradi, ovozga qo'yishni va Xarid komissiyasi tomonidan qabul qilingan qarorlarni e'lon qiladi, shuningdek xarid komissiyasi majlislarining bayonnomalarini imzolaydi. Xarid komissiyasi raisi yo'qligida uning vazifalarini o'rinbosari bajaradi.

Tanlash (tender) o'tkazish jarayoni Xarid komissiyasi raisi yoki kelishuvga ko'ra rais o'rinbosarlaridan birining rahbarligida va ishtirokida o'tkazilishi mumkin.

Xarid komissiyasiga Raislik qiluvchi quyidagi vakolatlarga ega:

Xarid komissiyasi majlislarini chaqirish;

Xarid komissiyasi qabul qilgan qarorlar bajarilishini nazorat qilishni tashkil etish;

Xarid komissiya a'zolari tomonidan o'z zimmalariga yuklatigan vazifalar bajarilishini muvofiqlashtirish;

Xarid komissiyasi samarali ishlashi uchun zarur bo'ladigan boshqa choralarni ko'rish.

Xarid komissiyasining majlisini rais yoki kelishuvga ko'ra uning o'rinbosari olib boradi. Xarid komissiyaning yig'ilishi uning a'zolarining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etgan taqdirda vakolatli hisoblanadi.

Xarid komissiyasining ishchi organi Ma'muriy xo'jalik bo'limi hisoblanadi.

Xarid komissiyasi tarkibiga manfaatlar to'qnashuvi mavjud shaxslar kiritilganligi aniqlanganda Komissiya raisi bunday shaxsni muayyan xaridni o'tkazgunga qadar rad etish haqida qaror qabul qilishi shart. Komissiya a'zosini rad etish haqidagi qaror yozma shaklda rasmiylashtiriladi va rad etishga asos bo'luvchi holatlar haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi lozim.

Xarid komissiyasi a'zosi o'zini o'zi rad qilgan taqdirda yoki rad etish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda Komissiya a'zosi ma'lum xaridlar bo'yicha Komissiya yig'ilishlarida qatnashishga haqli emas.

Xarid komissiyasi tanlash (tender)ga oid Elektron takliflarni ochish, ularni ko'rib chiqish va maxfiylikka rioya qilingan holda saqlashni belgilangan tartibda amalga oshiradi.

Elektron savdolarni amalga oshirish portalida xar bir Xarid komissiya a'zosi shaxsiy ERI (elektron raqamli imzo)sini ishlatgan holda, tanlash (tender)ga oid takliflarni baholaydi va imzolaydi.

Xarid komissiyasi tanlashga oid takliflarni ko'rib chiqish muddatini belgilaydi. Tanlash ishtirokchilarining takliflarini ko'rib chiqish va baholash muddati takliflarni taqdim etish muddati tugagan paytdan boshlab o'n ish kundan oshishi mumkin emas.


Ishchi organ tanlash tender savdolariga qatnashish bo'yicha taklifnomalarni malakali yetkazib beruvchilarga ham yuborishi mumkin.

Xarid komissiyasining navbatdagi yig'ilishi o'tkazilishidan 3 kun avval ishchi organ komissiya yig'ini haqida komissiya a'zolariga e'lon yuboradi.

Xarid komissiyasining barcha majlislari va qabul qiladigan qarorlari bayonnomalar bilan rasmiylashtiriladi. Bayonnomalar Xarid komissiyasining hozir bo'lgan a'zolari tomonidan imzolanishi va Xarid komissiyasi raisi tomonidan tasdiqlanishi lozim.

Bayonnoma Xarid komissiyasi kotibi tomonidan imzolanmasligi, bayonnomaning haqiqiy emas deb topilishiga olib kelishi mumkin.

Xarid komissiyasining har bir a'zosi Xarid komissiyasining ish jarayonida qaror qabul qilishi shart, qaror qabul qilishda betaraf bo'lishga yo'l qo'yilmaydi. Ovoz berish ochiq tarzda amalga oshiriladi. Yashirin tarzda ovoz berish va Xarid komissiyasining a'zolari tomonidan o'z vakolatlarini boshqa shaxslarga berishlariga yo'l qo'yilmaydi. Xarid komissiyasi raisi yo'qligida uning vazifalarini o'rinbosari bajaradi.

  
(A. G. Agguzov)



**O'zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi markaziy  
apparating doimiy faoliyat ko'rsatuvchi tender o'tkazish hamda eng yaxshi  
takliflarni tanlash bo'yicha xarid komissiyasi**

**TARKIBI**

<b>T/r</b>	<b>F.I.Sh.</b>	<b>Lavozimi</b>
1.	Qayumov Asadulla Urolovich	Raisning birinchi o'rinbosari – komissiya raisi;
2.	Kamilov Mirzoxid Zafarjonovich	Xaridlarni nazorat qilish departamenti direktori – komissiya raisi o'rinbosari;
3.	Shadmankulov Sherzod Ablakulovich	Yuridik boshqarma boshlig'i – komissiya a'zosi;
4.	Allayev Lutfullo Alikulovich	Moliya va buxgalteriya hisobi boshqarmasi boshlig'i – komissiya a'zosi;
5.	Davlatov Ulug'bek Baxodirovich	Istemol bozorlarida narxlarni monitoring qilish departamenti direktori- komissiya a'zosi
6.		Axborot texnologiyalari bo'yicha rais maslahatchisi – komissiya a'zosi;
7.	G'afforov Abdurasul Abdujabbor o'g'li	Ma'muriy-xo'jalik bo'limi boshlig'i - komissiya kotibi.

**Izoh.** Olinayotgan tovarning (ishning, xizmatning) xususiyatlari inobatga olingan holda komissiya tarkibi tegishliligi bo'yicha o'zgartirilishi mumkin.

Xarid komissiyasi mas'ul kotibi vazifasi Ma'muriy-xo'jalik bo'limi boshlig'iga yuklatiladi;

Komissiya a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda uning tarkibiga ushbu lavozimlarga yangidan tayinlangan yoxud zimmasiga tegishli funktsiyalarni bajarish yuklatilgan shaxslar kiritiladi.